

**“Hududgazta’minot” AJ ijro apparati hamda quyi tizim tashkilotlari (filiallari)  
xodimlarining faoliyat samaradorligini baholash tizimi to‘g‘risida  
NIZOM**

**I. Umumiy qoidalar**

1.1. ““Hududgazta’minot” AJ ijro apparati hamda quyi tizim tashkilotlari (filiallari) xodimlarining faoliyat samaradorligini baholash tizimi to‘g‘risida”gi Nizom (keyingi o‘rinlarda – Nizom) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublari joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2015-yil 24-apreldagi PF-4720-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 28-iyuldagi “Davlat ulushi bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to‘g‘risida”gi 207-sonli qarori, “Hududgazta’minot”AJning ichki mehnat qoidalari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga asosan ishlab chiqilgan.

1.2. Nizom ichki normativ-huquqiy hujjat bo‘lib, “Hududgazta’minot” AJ ijro apparati, “Hududgaz Komplektatsiya” va “Hududgaz Konsalting” MCHJ xodimlari hamda gaz ta‘minoti filiallari va ularning bo‘limlari xodimlari faoliyati samaradorligining baholash tizimini, oylik rag‘batlantirishlarni hisoblash va to‘lash tartibini belgilovchi hujjat hisoblanadi.

1.3. Ushbu Nizom “Hududgazta’minot” AJ boshqaruvi a‘zolari, ishbay tarzida ishlovchi xodimlarga hamda fuqaroviy-huquqiy shartnoma asosida ishlovchilarga qo‘llanilmaydi.

1.4. Ushbu Nizomni joriy etishdan maqsad quyidagilar:

xodimlarni moddiy rag‘batlantirish orqali, kasbiy mahoratini oshirish hamda yanada samarali mehnat qilishga chorlash;

xodimlarni tabiiy va suyultirilgan gaz ta‘minotini amalga oshirishda noqonuniy holatlarni oldini olish, noqonuniy holatlar yuz berganda aniqlashda faol ishtirokini munosib rag‘batlantirish;

xodimlarni ishlab chiqarishdagi o‘z ishi orqali yangilik yaratishini rag‘batlantirish;

xodimlarni uzluksiz hamda yuqori ishlab chiqarish faoliyatini, boshqaruv organi tomonidan berilgan topshiriqlarning sifatli bajarilishini rag‘batlantirish;

**II. Xodimlar faoliyatining samaradorligini baholash mezonlari**

2.1. “Hududgazta’minot” AJ xodimlarining ish faoliyati samaradorligini baholash mezonlari samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oladi.

2.2. Samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari (keyingi o‘rinlarda – SMK) “Hududgazta’minot” AJ xodimlarining faoliyati samaradorligini aniqlash uchun foydalaniladigan baholash mezonlarining miqdoriy o‘lchovlaridan iborat bo‘ladi.

2.3. Ushbu ko'rsatkichlar Jamiyatning alohida buyruq-qaroriga asosan tasdiqlanadi.

2.4. Nizomning SMK ro'yxatiga va ularni hisoblash qoidalariga, ularning jamiyat moliyaviy-xo'jalik va ishlab chiqarish faoliyatidagi ahamiyatidan kelib chiqib, "Hududgazta'minot" AJ boshqaruvi va xodimlarning vakillik organi (birlashgan kasaba uyushma qo'mitasi) bilan hamkorlikda qo'shma qarorga (buyruq-qarorga) asosan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

2.5. Korxonalar va Filiallarga o'z xodimlari uchun asosiy vazifalaridan kelib chiqqan holda alohida SMK belgilashlari mumkin, chunki "Hududgazta'minot" AJ tomonidan belgilangan SMK Korxonalar va Filiallarining birgalikdagi faoliyatlari natijasi hisoblanadi.

2.6. SMKni hisoblash davriyligi har oydan iborat bo'ladi.

2.7. SMK belgilanmagan boshqarma va bo'limlarga komissiya qaroriga asosan rag'batlantirish belgilanishi mumkin.

2.8. "Hududgazta'minot" AJ hududiy gaz ta'minoti filiallari (bo'limlari) xodimlarining faoliyati samaradorligini baholash (bunda gaz ta'minoti filialining ijro apparati samaradorlik ko'rsatkichi tuman (shahar) gaz ta'minoti bo'limlari ko'rsatkichlari bajarilishining o'rtacha miqdoriga teng bo'ladi) **1-ilovaga muvofiq amalga oshirilsin.**

2.9. "Hududgazta'minot" AJ ijro apparati boshqarma va bo'limlari tomonidan SMKni hisoblash uchun belgilangan prognoz ko'rsatkichlarning bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlar hisobot davridan keyingi oyning 1 sanasiga qadar taqdim etilishi zarur. Agar mazkur sana dam olish kunlari yoki bayram kunlariga to'g'ri kelib qolsa, ma'lumotlarni taqdim etish kuni dam olish va bayram kunlaridan keyingi ish kuni hisoblanadi.

2.10. Mehnatni tashkil etish va ish haqi bo'limi bir kun muddatda barcha boshqarma va bo'limlar tomonidan taqdim etilgan SMKni baholash ko'rsatkichlarini umumlashtirgan holda qaror qabul qilish uchun "Hududgazta'minot" AJ komissiyasiga taqdim etadi.

2.11. Filiallarda iqtisodiy tahlil bo'limlari SMKni baholash ko'rsatkichlarini umumlashtirgan holda qaror qabul qilish uchun komissiyaga kiritishga mas'ul hisoblanadi.

### **III. Ko'rsatkichlarni bajarganlik uchun oylik rag'batlantirish miqdorini belgilash va ularni amalga oshirish manbalari**

3.1. Asosiy ko'rsatkichlarni bajarganlik uchun oylik rag'batlantirish miqdori xodimning lavozim okladiga nisbatan qo'llaniladigan koeffitsiyentlarda belgilanadi.

"Hududgazta'minot" AJ ijro apparati boshqarma va bo'limlarining xodimlariga belgilangan koeffitsiyentlar miqdori mazkur Nizomning **2-ilovasiga muvofiq;**

3.2. Gaz ta'minoti filiallari (bo'limlari) faoliyati samaradorligining bajarilish ko'rsatkichi 100 % bo'lganda, xodimlarga belgilangan koeffitsiyentlar miqdori mazkur Nizomning **3 ilovasiga muvofiq, aks holda 3.1 ilovasiga muvofiq amalga oshiriladi.**

Energo resurslaridan (tabiiy va suyultirilgan gazdan) nooqilona va noqonuniy foydalanish holatlarini oldini olish yoki uni aniqlashda faol ishtirok etgan, shuningdek, energo resurslarini talon-taroj qilinishini oldini olishda samarali faoliyat tashkil etgan va jamoadoshlariga o'rnak bo'lib kelayotgan xodimlarning har birini munosib qo'llab-quvvatlash maqsadida **qo'shimcha ravishda quyidagicha rag'batlantirib boriladi:**

- aniqlangan noqonuniy holat bo'yicha undirilgan summa miqdori bazaviy hisoblash miqdorining bir ming besh yuz baravaridan yuqori bo'lganda **oylik okladining o'n koefitsiyent miqdorida;**

- aniqlangan noqonuniy holat bo'yicha undirilgan summa miqdori bazaviy hisoblash miqdorining bir ming baravaridan, bir ming besh yuz baravarigacha bo'lganda **oylik okladining besh koefitsiyent miqdorida;**

- aniqlangan noqonuniy holat bo'yicha undirilgan summa miqdori bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan, bir ming baravarigacha bo'lganda **oylik okladining uch koefitsiyent miqdorida.**

Aniqlangan noqonuniy holat bo'yicha o'rnatilgan tartibda dalolatnoma rasmiylashtiriladi. Bunda xodimlar soni 5 nafardan oshmasligi lozim.

3.3. Gaz ta'minot filiallarining har bir yo'nalishlari uchun alohida belgilangan mezon ko'rsatkichlari asosida hisoblab chiqilgan oylik rag'batlantirish miqdori filialning bir oylik lavozim okladlari yig'indisining **1,5 baravaridan oshmasligi lozim.**

3.4. Rag'batlantirish to'lovlari "Hududgazta'minot" AJning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

#### **IV. Oylik rag'batlantirishni hisoblash va to'lash tartibi**

4.1. Jamiyatda belgilangan samaradorlik ko'rsatkichlarini amalda bajarilishini ko'rib chiqish hamda qaror qabul qilish bo'yicha **komissiya tarkibi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.**

4.2. Gaz ta'minoti filiallarida samaradorlik ko'rsatkichlarini amalda bajarilishini ko'rib chiqish hamda tahlil qilish bo'yicha **komissiya tarkibi 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.**

4.3. SMKni hisoblashda quyidagi ma'lumotlar hisobot manbai hisoblanadi:

Jamiyatning korporativ dasturi hamda mobil ilovlaridagi onlayn hisobotlar;  
boshqarma va bo'limlar tomonidan tasdiqlangan shaklda taqdim etilgan hisobotlar,  
buxgalteriya hisobotlari;

biznes-reja;

komplayens nazorat bo'linmalarining hisobotlari;

energo resurslarning balans hisobotlari.

4.4. Komissiya tomonidan xodimlarga oylik rag'batlantirishni to'lash to'g'risida qabul qilingan qarori Jamiyatning buyruq-qarori bilan tasdiqlanadi va amalga oshiriladi. Komissiya qarori bilan xodimlarning ko'rsatkichlarni bajarilishi past bo'lganda ham ko'rsatkichning bajarilish foiziga mutanosib ravishda rag'batlantirishi mumkin.

4.5. Rag'batlantirish puli har oyda xodimlarning ishlagan ish vaqtiga mutanosib ravishda to'lanadi.

4.6. Rag'batlantirish summasi belgilangan ko'rsatkichlarning bajarilish foizini, koeffitsentlarga kupaytirish yo'li bilan ishlagan kuniga mutanosib ravishda belgilanadi.

4.7. Intizomiy jazo chorasi (hayfsan, jarima va boshqalar) qo'llanilgan xodimga, jazo muddati amalda bo'lgan davr uchun rag'batlantirishga yo'l qo'yilmaydi.

## **V. Oylik rag'batlantirish monitoringi va javobgarligi**

5.1. Ushbu Nizomga muvofiq Korxonada va Filialarda oylik rag'batlantirishni hisoblash va to'lash ustidan nazorat birinchi rahbar tomonidan amalga oshiriladi.

5.2. Har oyda xodimlarga ish haqi to'lanadigan sanadan kechiktirmagan holda, hisoblangan ish haqi to'g'risidagi (ish haqi miqdori, rag'batlantirish miqdori, ushlanmalarning miqdori va asoslari, to'lanadigan pulning umumiy summasi) to'lov varaqasi taqdim etiladi.

5.3. "Hududgazta'minot" AJ ijro apparati boshqarma va bo'limlari tomonidan SMKni hisoblash uchun belgilangan prognoz ko'rsatkichlarning bajarilishi to'g'risidagi taqdim etilgan ma'lumotlar va hisobotlarning haqiqiylikiga, ma'lumotlar va hisobotlarni taqdim etgan boshqarma va bo'limlar mas'ul hisoblanadi.

5.4. Xodimlarga to'lanadigan to'lovlar miqdorini ularni qo'shimcha ravishda hisoblab chiqish zarurligi aniqlanganda mazkur ijobiy farq hisobot yilidagi ish yakunlari bo'yicha ularga to'lanadigan rag'batlantirish pullari to'lanayotganda to'g'rilanadi.

5.5. Ortiqcha to'langan to'lovlarni ushlab qolish zaruratiyani keltirib chiqaruvchi holat aniqlanganda, tashkilotning xodimlarga to'langan to'lovlardagi salbiy farq hisobot yilidagi yakunlari bo'yicha ularga to'lanadigan rag'batlantirish pullari to'lanayotganda, ish haqidan ushlab qolinadi yoki qonunda belgilangan tartibda boshqa yo'l bilan qoplanadi.

5.6. Ushbu Nizomning qo'llanishi bilan bog'liq nizolar muzokaralar o'tkazish yo'li bilan bartaraf etiladi. Nizo bartaraf etilmagan taqdirda belgilangan tartibda sud tomonidan hal etiladi.

## **VI. Yakuniy qoidalar**

6.1. Mazkur Nizom Jamiyatning buyruq-qarori tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi va Nizom qonunchilikda belgilangan asosda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi hamda tegishli buyruq-qarorga muvofiq bekor qilinishi mumkin.

6.2. Ushbu Nizomda nazarda tutilmagan holatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlari asosida tartibga solinadi.